

To'ra Bobolov: "Guljanoy bizning faxrimiz"



To'ra Bobolov: "Guljanoy bizning faxrimiz"

Termizda Tokio shahrida o'tkazilgan XVI Paralimpiya o'yinlarida sportning para-taekvando VTF turi bo'yicha oltin medal sohibasi, Uzun tumanilik Guljanoy Naimovani sharflashga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi.

Nuroniylar, sportchilar, yoshlar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etgan tadbirda Surxondaryo viloyati hokimi To'ra Bobolov, viloyat mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, senator Orziqul Soatovlar Tokio shahrida bo'lib o'tgan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o'yinlarida mamlakatimiz sportchilari katta g'alabalarni qo'lga kiritib, O'zbekiston bayrog'ini dunyoga keng tarannum etganini alohida ta'kidladi.

Ahdi qat'iy, matonatli chempion sportchilar safida surxondaryolik mashhur bokschi Bahodir Jalolov va para-taekvandochi Guljanoy Naimovalar mamlakatimiz mustaqilligining 30 yillik to'yiga munosib sovg'a - oltin medalni tuhfa etgani qayd etildi.

- Kunchiqar mamlakatdan oltin medal bilan qaytgan Guljahon bizning faxrimiz, - dedi

viloyat hokimi. – Bu g'alaba bilan matonatli chempion qizimizni qizg'in tabriklab, yutuqlari bardavom bo'lishini tilaymiz. Uning sport bilan shug'ullanishi uchun barcha sharoitlarni yaratib bergan onasi Go'zal Tojiboevaga viloyatimiz ahli nomidan minnatdorlik bildiramiz. Guljanoy unib-o'sgan Uzun tumanidagi Mustaqillik mahallasini «Obod mahalla» dasturi doirasida tubdan yangilab, keng, ravon ko'chalar barpo etamiz. Mahalladoshlarining uy-joylarini tartibga keltirib, bu go'shada zamonaviy infratuzilma yaratamiz.

Ayni paytda viloyatda paralimpiya harakatini yanada yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunga mavjud sport ta'lim muassasalarida paralimpiya sport turlarini rivojlantirish uchun 25 ta sport turlari bo'yicha sport seksiyalari tashkil etilgani ham yaqqol dalildir.

Prezidentimizning 2021 yil 18 maydagi «Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bu boradagi ishlar natijadorligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Shunga muvofiq 28 mingga yaqin nogironligi bor yoshlarni bosqichma-bosqich paralimpiya sport turlariga jalb etish rejalashtirilmoqda. Tadbirda XVI Paralimpiya o'yinlari oltin medali sovrindori Guljanoy Naimova so'zga chiqib, bunday yutuqni qo'lga kiritishida mamlakatimizda sportni rivojlantirishga qaratilayotgan yuksak e'tibor muhim omil bo'lganini e'tirof etdi. Prezidentimiz va muxlislariga musobaqalarda qo'llab-quvvatlab turgani uchun chuqur minnatdorlik bildirdi.

Tantanali marosimda Guljanoy Naimova va uning onasi Go'zal Tojiboevalarga esdalik sovg'alar topshirildi.